



## XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr

VI-75-197-5-71-K/23

Karmana tuman hokimiligi

### **Karmana tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27, 99-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning, 24–moddalari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-12/20-05-38/3685-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. Navoiy viloyati Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-128-5-0-K/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yilgi tumanni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga hamda 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari proqnoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman byudjetidan 2024-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiyligi cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjetiga umum davlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 5-ilovaga, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi “Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458-sonli qaroriga asosan, tumanda jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan daromadlaridan tushadigan soliq, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig‘i (noturar joylar bo‘yicha mol-mulk va yer soliqlaridan tashqari) bo‘yicha undirilgan mablag‘larning 10 foizi hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar tuman byudjeti orqali 2024-yil uchun “Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari 7-ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

7. 2024-yil uchun tuman byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 85 858 829,0 ming.so‘m, shundan 62 347 050,0 ming.so‘mi viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi transfert hamda aksiz solig‘i tushumlari hisobidan 23 511 779,0 ming.so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosi hamda xarajatlar ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 589 797,0 ming. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman hokimligi zahira jamg‘armalari mablag‘larini tumanning tuman byudjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’milansin.

Tuman mahalliy byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarning zahira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2024-yil uchun tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 770 663 ming.so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy

byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirdorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

b) Karmana tuman mahalliy byudjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar taqsimlanadi:

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilingan 10 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirdorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Rustamov), tuman soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiev) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlар, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetining prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

11. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O'.Shodiev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'inining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

Kadastr agentligi tuman bo'limi (S.Aliqulov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulkulari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minasin.

12. Majburiy ijro byurosi, tuman soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko'rib borsin.

13. Tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan tuman soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

14. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi;

Mahalliy byudjetning qo‘srimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘srimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalar bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishiga hamda ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga ma’sul etib belgilansin.

### 15. Tuman hokimligi:

tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakillangan qo‘srimcha manbalarining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin, bunda, tuman xalq deputatlari, tuman Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

tuman hokimligi favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashlariga hisobot berish sharti bilan qo‘srimcha manbalarni yo‘naltirish bo‘yicha qarorlarni qabul qiladi.

mahalliy byudjetlarning qo‘srimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining

moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

16. Tuman hokimligi tomonidan byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minalash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot kiritib borilsin.

17. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiysi (G.Shermatova), tuman hokimligi hamda tegishli tashkilotlar:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

18. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minalasin.

19. Mazkur qaror “Karmana ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniyev) va xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash kotibiysi mudiri



G.Shermatova

Xalq deputatlari Karmana tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-197-5-71-K/23-son qaroriga  
1-ilova

## **Karmana tumanining 2024-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2024-yil uchun prognoz</b>	<b>Maqsadli mo'ljallar</b>	
			<b>2025-yil</b>	<b>2026-yil</b>
1.	Yalpi ichki mahsulot, mldr.so'm	17 697	19 466,7	21 413,3
2.	Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	4,9	5,1	5,4
3.	Ist'emol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	8,0	7,5	7,0
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	6,4	7,0	7,5
5.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	5,7	5,8	5,3
6.	Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati, foizda	19,5	14,6	14,6

Xalq deputatlari Karmana tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-197-5-71-K/23-son qaroriga  
2-ilova

## Karmana tumanining tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami (ming.so‘mda)
	<b>Daromad jami</b>	<b>89 948 000,0</b>
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	17 061 500,0
2	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	718 000,0
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	38 589 500,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 485 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 332 000,0
6	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	1 850 000,0
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	12 912 000,0
x	Taqsimlanuvchi daromadlar	23 511 779,0
	<i>shu jumladan:</i>	
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	10 191 590,0
2	Tamaki maxsulotlariga aksiz solig‘i	9 214 996,0
3	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	4 105 193,0

Xalq deputatlari Karmana tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-197-5-71-K/23-son qaroriga  
3-ilova

**2024-yil uchun Karmana tuman byudjetidan birinchi darajali  
byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament  
ajratmalarining cheklangan miqdorlari**

<b>Nº</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Miqdori (ming.so‘mda)</b>
	<b>Xarajatlar miqdori, Jami</b>	<b>175 806 829,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	<b>175 806 829,0</b>
<b>1</b>	<b>Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi</b>	<b>15 573 775,0</b>
	joriy xarajatlar	15 573 775,0
	umumiy ta’lim	6 838 410,0
	Maktabgacha ta’lim	8 735 365,0
<b>2</b>	<b>Tuman tibbiyot birlashmasi</b>	<b>82 767 750,0</b>
	joriy xarajatlar	82 767 750,0
<b>3</b>	<b>Tuman madaniyat bo‘limi</b>	<b>4 243 157,0</b>
	joriy xarajatlar	4 243 157,0
<b>4</b>	<b>Tuman Yoshlar siyosati va sport bo‘limi</b>	<b>10 649 782,0</b>
	joriy xarajatlar	10 649 782,0
	Bolalar va o‘smlilar sport maktabi	6 222 821,0
	Tuman Yoshlar ishlari agentligi	4 426 961,0
<b>5</b>	<b>Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi</b>	<b>2 052 192,0</b>
	joriy xarajatlar	2 052 192,0
<b>6</b>	<b>Tuman qishloq xo‘jalik bo‘limi</b>	<b>2 527 210,0</b>
	joriy xarajatlar	2 527 210,0
	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	2 242 985,0
	Tuman fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	284 225,0
<b>7</b>	<b>Tuman irrigatsiya bo‘limi</b>	<b>2 056 546,0</b>
	joriy xarajatlar	2 056 546,0
<b>8</b>	<b>Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi</b>	<b>2 112 130,0</b>

	joriy xarajatlar	<b>2 112 130,0</b>
<b>9</b>	<b>Tuman Soliq inspeksiyasi</b>	<b>5 108 864,0</b>
	joriy xarajatlar	5 108 864,0
<b>10</b>	<b>Tuman hokimligi</b>	<b>29 307 162,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	<b>29 307 162,0</b>
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	2 838 321,0
	Tuman xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	141 139,0
	Tuman maxallabay ishlash tadbirkorliknirivojlantirish markazi	4 621 399,0
	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tuman bo'limi	3 119 031,0
	Hokimliklarning zahira jamg'armalari	1 589 797,0
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo'limi	51 746,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	42 000,0
	"Mahalla budgeti" jamg'armasi mablag'lari	1 415 400,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	15 237 293,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	251 036,0
<b>11</b>	<b>Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi</b>	<b>19 408 261,0</b>
	joriy xarajatlar	<b>19 408 261,0</b>
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	15 408 261,0
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlariga	4 000 000,0

Xalq deputatlari Karmana tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-197-5-71-K/23-son qaroriga  
4-ilova

## **Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me'yori**

T/R	Hudud nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq*	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Karmana tumani	50	10	100	100

\* Karmana tumani hududida joylashgan elektr stansiyasi tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq viloyat budgetiga to‘liq o‘tkaziladi.

Xalq deputatlari Karmana tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-197-5-71-K/23-son qaroriga  
5-ilova

**Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun  
berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerdardan tashqari) mutloq  
miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga  
nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (1 ga uchun ) (so‘mda)
1	Azamat MFY	1,00	48 600 000,0
2	Ayronchi MFY	1,00	48 600 000,0
3	Alisher Navoiy MFY	1,00	48 600 000,0
4	Allon MFY	1,00	48 600 000,0
5	Arabxona MFY	1,00	48 600 000,0
6	Arg‘un MFY	1,00	48 600 000,0
7	Beshkent MFY	1,00	48 600 000,0
8	Bog‘ishamol MFY	0,80	38 880 000,0
9	Varq MFY	1,00	48 600 000,0
10	Gulobod MFY	1,00	48 600 000,0
11	Degaron MFY	1,00	48 600 000,0
12	Dehkon MFY	1,00	48 600 000,0
13	Do‘rman MFY	1,00	48 600 000,0
14	Do‘stlik MFY	0,80	38 880 000,0
15	Jaloyir MFY	1,00	48 600 000,0
16	Ziyokor MFY	1,00	48 600 000,0
17	Kalovot MFY	1,00	48 600 000,0
18	Katta machit MFY	1,00	48 600 000,0
19	Kaxramon MFY	1,00	48 600 000,0
20	Kumushkon MFY	0,80	38 880 000,0
21	Ko‘xna Ko‘rgon MFY	1,00	48 600 000,0
22	Malik MFY	0,80	38 880 000,0
23	Mirsaid Baxrom MFY	1,00	48 600 000,0
24	Navro‘z MFY	1,00	48 600 000,0
25	Narpay MFY	1,00	48 600 000,0
26	Nurafshon MFY	1,00	48 600 000,0

27	Paxlavon MFY	1,00	48 600 000,0
28	Paxtaobod MFY	1,00	48 600 000,0
29	Sardoba MFY	0,80	38 880 000,0
30	Talqoq MFY	1,00	48 600 000,0
31	O‘zbekiston MFY	0,80	38 880 000,0
32	Uyrot MFY	1,00	48 600 000,0
33	Faxxod MFY	1,00	48 600 000,0
34	Xazora MFY	1,00	48 600 000,0
35	Xonchorbog‘ MFY	1,00	48 600 000,0
36	Xo‘ja Xisrav MFY	1,00	48 600 000,0
37	Shibzon MFY	1,00	48 600 000,0
38	Yangi ariq MFY	1,00	48 600 000,0
39	Yangi obod MFY	1,00	48 600 000,0
40	Zarafshon MFY	1,00	48 600 000,0
41	Yangi varq MFY	1,00	48 600 000,0
42	Buyuk ipak yo‘li MFY	0,80	38 880 000,0
43	Yangi hayot MFY	0,80	38 880 000,0

Xalq deputatlari Karmana tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-197-5-71-K/23-son qaroriga  
6-ilova

**Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun  
berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerdardan tashqari) mutloq  
miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga  
nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (1 kv. uchun ) (so‘mda)
1	Azamat MFY	1,00	448,0
2	Ayronchi MFY	1,00	448,0
3	Alisher Navoiy MFY	1,00	448,0
4	Allon MFY	1,00	448,0
5	Arabxona MFY	1,00	448,0
6	Arg‘un MFY	1,00	448,0
7	Beshkent MFY	1,00	448,0
8	Bog‘ishamol MFY	0,80	358,4
9	Varq MFY	1,00	448,0
10	Gulobod MFY	1,00	448,0
11	Degaron MFY	1,00	448,0
12	Dehkun MFY	1,00	448,0
13	Do‘rman MFY	1,00	448,0
14	Do‘stlik MFY	0,80	358,4
15	Jaloyir MFY	1,00	448,0
16	Ziyokor MFY	1,00	448,0
17	Kalovot MFY	1,00	448,0
18	Katta machit MFY	1,00	448,0
19	Kaxramon MFY	1,00	448,0
20	Kumushkon MFY	0,80	358,4
21	Ko‘xna Ko‘rgon MFY	1,00	448,0
22	Malik MFY	0,80	358,4
23	Mirsaid Baxrom MFY	1,00	448,0
24	Navro‘z MFY	1,00	448,0
25	Narpay MFY	1,00	448,0
26	Nurafshon MFY	1,00	448,0
27	Paxlavon MFY	1,00	448,0
28	Paxtaobod MFY	1,00	448,0
29	Sardoba MFY	0,80	358,4
30	Talqoq MFY	1,00	448,0

31	O‘zbekiston MFY	0,80	358,4
32	Uyrot MFY	1,00	448,0
33	Faxod MFY	1,00	448,0
34	Xazora MFY	1,00	448,0
35	Xonchorbog‘ MFY	1,00	448,0
36	Xo‘ja Xisrav MFY	1,00	448,0
37	Shibzon MFY	1,00	448,0
38	Yangi ariq MFY	1,00	448,0
39	Yangi obod MFY	1,00	448,0
40	Zarafshon MFY	1,00	448,0
41	Yangi varq MFY	1,00	448,0
42	Buyuk ipak yo‘li MFY	0,80	358,4
43	Yangi hayot MFY	0,80	358,4

Xalq deputatlari Karmana tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-197-5-71-K/23-son qaroriga  
7-ilova

**Karmana tumanida 2024-yil uchun “Mahalla byudjeti” jamg‘armasi  
mablag‘larini shakllantirish manbalari**

t/r	Hududlar	MFYlar	2024-yil uchun prognoz		Jami	<i>Shundan, 10 foizi "Mahalla budgeti" jamg‘armasiga o‘tkaziladi (mln.su‘m)</i>
			Jismoniy shaxslarning mol- mulknii ijara berishdan oladigan daromadlardan tushadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig‘iga undirilgan soliq		
1	Karmana tumani	Bog‘ishamol	127	634	761	76
2	Karmana tumani	Ko‘xna qo‘rg‘on	84	315	399	40
3	Karmana tumani	Azamat	77	299	376	38
4	Karmana tumani	O‘zbekiston	76	370	446	45
5	Karmana tumani	Katta machit	73	397	470	47
6	Karmana tumani	Farhod	66	88	154	15
7	Karmana tumani	Shibzon	64	681	745	75
8	Karmana tumani	Varq	63	453	516	52
9	Karmana tumani	Beshkent	59	217	276	28
10	Karmana tumani	Yangi ariq	52	332	384	38
11	Karmana tumani	Navro‘z	52	470	522	52
12	Karmana tumani	Talqoq	51	488	539	54
13	Karmana tumani	Ziyokor	40	337	377	38
14	Karmana tumani	Do‘slik	36	411	447	45
15	Karmana tumani	Dehqon	33	161	194	19
16	Karmana tumani	Sardoba	33	91	124	12
17	Karmana tumani	Arg‘un	31	339	370	37
18	Karmana tumani	Alisher Navoiy	31	242	273	27
19	Karmana tumani	Paxtaobod	30	383	413	41
20	Karmana tumani	Narpay	29	388	417	42
21	Karmana tumani	Kalovot	28	407	435	44
22	Karmana tumani	Uyrot	25	347	372	37
23	Karmana tumani	Paxlavon	22	259	281	28
24	Karmana tumani	Yangiobod	22	339	361	36
25	Karmana tumani	Ayronchi	22	406	428	43
26	Karmana tumani	Mirsaid Baxrom	21	119	140	14
27	Karmana tumani	Jaloyir	20	290	310	31
28	Karmana tumani	Allon	18	289	307	31
29	Karmana tumani	Kumushkon	18	286	304	30
30	Karmana tumani	Yangihayot	16	131	147	15
31	Karmana tumani	Nurafshon	15	321	336	34
32	Karmana tumani	Gulobod	14	150	164	16
33	Karmana tumani	Qahramon	13	234	247	25

t/r	<b>Hududlar</b>	<b>MFYlar</b>	<b>2024-yil uchun prognoz</b>		<b>Jami</b>	<i>Shundan, 10 foizi "Mahalla budgeti" jamg'armasiga o'tkaziladi (mln.su'm)</i>
			<b>Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan daromadlardan tushadigan soliq</b>	<b>Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'iga undirilgan soliq</b>		
34	Karmana tumani	Do'rman	12	301	313	31
35	Karmana tumani	Malik	12	133	145	15
36	Karmana tumani	Arabxona	11	422	433	43
37	Karmana tumani	Xonchorbog'	11	330	341	34
38	Karmana tumani	Xo'ja Xisrav	10	121	131	13
39	Karmana tumani	Hazora	10	336	346	35
40	Karmana tumani	Degaron	7	327	334	33
41	Karmana tumani	Buyuk ipak yo'li	6	23	29	3
42	Karmana tumani	Zarafshon	0	20	20	2
43	Karmana tumani	Yangi Varq	0	27	27	3
<b>Jami Karmana tumani</b>		<b>x</b>	<b>1 440</b>	<b>12 714</b>	<b>14 154</b>	<b>1 415</b>